



Nyu-York shahar davlat maktablaridagi *ko'p tilli* *va immigrant oilalar* *uchun yo'riqnoma*







Mundarija

Mundarija	3
Bu yo'riqnoma nima?	4
Immigrant o'quvchi sifatida farzandimning huquqlari nimadan iborat?	6
Men farzandimni maktabga qanday va qayerda beraman?	7
Maktabda kimlar bilan aloqa qilaman?	8
Maktabda qanday qilib farzandimning himoyachisi bo'lishim mumkin?	9
Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun dastur	10
Ikki tilli shaxs bo'lishning foydalari	11
Maktabim ikki tilli dasturlarni taklif qilmasa nima bo'ladi?	12
Farzandimning maxsus ehtiyojlari va/yoki nogironligi mavjud. Nima qilishim kerak?	12
Boshqa savollarim bo'lsa nima qilaman?	12
Farzandim uchun o'rta maktabdan keyin qanday ta'lim olish imkoniyatlari bor?	13
Aloqa	15
URL havolalar ilovasi	16



Bu yo‘riqnoma nima?

Bu yo‘riqnoma sizga Nyu-York shahridagi maktab tizimini tushunishga yordam beradi. Maktabga qabul jarayonidan boshlab siz bu yo‘riqnomadan Nyu-York shahridagi davlat maktabidagi ota yoki ona sifatida huquqlaringiz; til dasturlari va farzandingizning ta‘lim olishi va sizning farzandingizning ta‘limi bilan shug‘ullanishingizni qo‘llab-quvvatlaydigan maktab qoshidagi xizmatlar; farzandingiz uchun o‘rta maktabdan keyingi imkoniyatlar; xavotirlarni bildirish uchun joylar; Nyu-York shahriga ko‘chishingizni osonlashtiradigan shahardagi mavjud resurslarni tushunishda foydalanishingiz mumkin.

Hurmatli oilalar,

Nyu-York shahri davlat maktablari hamjamiyatiga xush kelibsiz! Shahrimiz butun dunyodagi madaniyatlar, tillar va an'analarning go'zal qorishmasiga ega. Maktablarimizda biz ushbu xilma-xillikni ulug'laymiz va har bir o'quvchi o'zini qadrli his qilishi va o'z irqi, tili va immigratsion maqomi haqida baralla ayta oladigan muhit yaratishga urinamiz. Biz har bir madaniyat hamjamiyatimiz palitrasiga noyob rang qo'shadi deb hisoblaymiz va barcha o'quvchilarni o'z meroslarini boricha qabul qilish va boshqalar bilan baham ko'rishga chorlaymiz.

Ota-ona va vasiy sifatida farzandingizning ta'limidagi rolingiz beqiyosdir. Biz sizdan uyda madaniyatingizni rivojlantirishni va uni farzandlaringizga o'tkazishni davom ettirishingizni so'raymiz. Bu xoh til, taomlar, musiqa, san'at yoki an'analardan iborat bo'lgan madaniy elementlar farzandingizning ta'lim olish tajribasini sezilarli darajada yaxshilashi va ularga madaniy ildizlarini yo'qotmaslikka yordam berishi mumkin.

Maktablarimizda farzandlaringiz turlicha kelib chiqishga ega bolalar bilan birga o'qiydi va dunyodagi xilma-xillik haqida qimmatli tushunchaga ega bo'lishadi. Biz ushbu ta'lim olish sari yo'lda siz bilan hamkorlik qilishni va shu orqali farzandingizni yorqin kelajakda tayyorlaydigan boy, xilma-xil va inklyuziv ta'lim olish tajribasini taqdim etishni maqsad qilganmiz.

Immigrant o'quvchi sifatida farzandimning huquqlari nimadan iborat?

- Nyu-York shahrida barcha bolalar immigratsion maqomidan qat'i nazar davlat maktabida ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim boshqarmasi xodimlari immigratsion maqom haqida so'ramaydi yoki fuqarolikni tasdiqlovchi hujjat talab qilishmaydi va ular biror shaxsning immigratsion maqomi haqida ma'lumot olishsa, uni maxfiy saqlashlari talab etiladi.
- Maktablar va okruglarga o'quvchi va uning oilasiga oid axborotni biror insonga, jumladan, Immigratsion bojxona xizmati xodimlariga taqdim etish taqiqlangan, ammo qonun talab etgan yoki ota-ona roziligi berilgan holatlar bundan mustasno.
- Muhim axborotni olishda yordam bo'lishi uchun maktablar ko'plab tillarda bepul tarjima xizmatlarini taklif etadi. Siz o'quvchining maktabida istalgan vaqtda tilga oid ko'mak talab qilishingiz mumkin! Ota-onalar koordinatori, mudirdan to'ldirishni so'rang yoki o'zingiz [Tarjima xizmatlari so'rov shaklini](#) to'ldiring.
- Agar ingliz tili/ko'p tilli o'rganuvchining ota-onasi sifatidagi huquqlaringiz haqida ko'proq ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz, Ta'lim boshqarmasining veb-saytiga kiring va "[Huquqlarga oid qonunni](#)" qidiring.



Men farzandimni maktabga qanday va qayerda beraman?

Endi barchasini nimadan boshlash haqida boshingiz qotganmi? Men farzandimni Nyu-York shahridagi davlat maktablariga qanday berishim mumkin?

Farzandingizni maktabga berishdagi birinchi qadam bu sizga yaqin Oilaviy qabul markaziga tashrif buyurishdir.

Yodda tuting, siz immigratsion maqomingiz yoki ID hujjatingizni ko'rsatishingiz shart emas. Oilaviy qabul markazidagi xodimlar sizga ro'yxatdan o'tish uchun qanday hujjatlar kerak ekanini tushuntirishadi. Ko'pchilik holatlarda sizdan quyidagilar talab qilinadi:

- **farzandingizning yoshini tasdiqlovchi hujjat,**
- **emlanganlik haqidagi qaydlar** (mavjud bo'lsa),
- eng oxirgi baholar tabeli (mavjud bo'lsa) hamda
- **manzilni tasdiqlovchi** har qanday ikkita hujjat.



Agar vaqtinchalik uyda yashayotgan bo'lsangiz, o'zingiz xohlagan [Oilaviy qabul markaziga](#) tashrif buyurishingiz mumkin. U yerdagi xodimlar sizga yordam beradi.



Maktabda kimlar bilan aloqa qilaman?

Yangi immigrant oila sifatida siz uchun maktab tizimini tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Maktabdagi har bir xodim sizga yordam berishga tayyor ekanidan ko'nglingiz to'q bo'lsin. Siz muntazam shaklda aloqa qiladigan bir necha turdagi xodimlar bo'ladi. Ular direktor yoki direktor o'rinbosari, ota-onalar koordinatori va maktabning xavfsizlik bo'yicha xodimi.

Ularning har biri maktabda turlicha rollarga ega.

Direktor/direktor o'rinbosari bu maktab faoliyatini, jumladan xodimlar boshqaruvi, akademik standartlar va o'quvchilarning xatti-harakatlari ustidan nazorat qiluvchi shaxsdir. Direktor maktab binosidagi ko'pchilik jarayonlar uchun javobgardir.



O'qituvchi bu dars o'tuvchi, boshlang'ich maktabda barcha fanlarni, o'rta maktab va yuqori sinflar maktabida esa maxsus fanlarni o'qituvchi shaxsdir.



Maktabning xavfsizlik bo'yicha xodimi Nyu-York shahar politsiya boshqarmasiga bo'ysunadi va maktab xavfsizligini ta'minlaydi, favqulodda holatlarni boshqaradi, jiddiy qoidabuzarliklar haqida maktab ma'muriyati va maktabning xavfsizlik bo'linmasiga xabar beradi, xavfsizlikni o'quvchilarga o'rgatadi va qulay o'quv muhitini targ'ib qiladi.



Ota-onalar koordinatori ota-onalar va oilaning boshqa a'zolariga maktab mashg'ulotlarini tushunish va ularda ishtirok etish, ota-ona va maktab orasidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi hamda farzandlarining muvaffaqiyatga erishishida ota-onaning ham ovozi tinglanishini ta'minlaydi.



Maktab psixologi o'quvchilarga tegishli darslarni belgilash va rejalashtirishga yordam beradi, alohida kollej va karyera rejasini yaratadi, kollej va ishga arizalarni to'dirishda ko'maklashadi va o'quvchilarga o'qishni bitirish yo'lida barqaror harakat qilishida yordam beradi.



Maktabda qanday qilib farzandimning himoyachisi bo'lishim mumkin?

Siz kabi ota-onalar farzandingizning eng yaxshi himoyachisidir! Undan tashqari, immigrant o'quvchining ota-onasi sifatida sizda maktabda kuchli ovozga ega bo'lish, ingliz tilini o'rganuvchilar va immigrant guruhlarning ehtiyojlarini bildirish uchun noyob imkoniyat bo'ladi. Siz uchun maktab hamjamiyatiga qo'shilishning bir necha yo'li mavjud. Siz farzandingizning ta'limida ishtirok etish uchun jamoaga qo'shilishingiz shart emas, ammo agar jamoaning faol a'zosi bo'lishni istasangiz, quyida ota-onalar boshchilik qiladigan **uchta maktab jamoasi** bilan tanishing. Barcha uchrashuvlar ochiq uchrashuv qonuniga asosan o'tkaziladi, ya'ni har kim ushbu uchrashuvda ishtirok etishi mumkin bo'ladi.

Maktab darajasi	Okrug darajasi	Markaziy daraja
PTA (Parent-Teacher Association; Ota-ona – o'qituvchi uyushmasi) mahalliy maktabdagi bolalarning ko'ngilli ota-onalaridan tashkil topgan guruh bo'lib, ular maktab hamjamiyatidagi xavotirlar va ko'mak darajasini muhokama qilishadi. Majlislarda har kim qatnashishi mumkin, ammo majlislarni faqat saylangan kengash a'zolari boshqaradi.	Prezidentlar kengashi tayinlangan superintendant tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ota-onalar guruhidir. Ovoz berish huquqiga ega a'zolar Ota-onalar uyushmasi yoki Ota-ona – o'qituvchi uyushmasining ma'lum okrugdagi prezidentlaridir.	Shahar kengashlari ota-onalar, o'quvchilar va rasmiy hokimiyat organlari vakillaridan tashkil topgan. Oylik uchrashuvlar ota-onalar tomonidan xavotirlarni muhokama qilish, o'qish imkoniyatlarini taqdim etish va rasmiy ishlarni muhokama qilish uchun o'tkaziladi. Agar o'zingiz kabi ingliz tilini o'rganuvchilarning ota-onalari nomidan vakillik qilishga qiziqsangiz CELL tashkilotiga qo'shilishingiz mumkin.
SLT (School Leadership Team; Maktab yetakchilari jamoasi) maktab ma'lumotlari, o'quv dasturi, maktabdan keyingi imkoniyatlar va dasturlarni muntazam muhokama qilish uchun yig'iladigan teng miqdordagi ota-onalar va maktab xodimlaridan tashkil topgan. Ota-onalar va xodimlar jamoaga ovoz olish orqali qo'shilishi lozim.	Okrug yetakchilari kengashi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, okrug siyosatlar va tashabbuslariga oid fikr bildiruvchi va tavsiyalar beruvchi ota-onalardan iborat guruhdir.	
Ota-ona – o'qituvchi konferensiyasi bu ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'quvchining akademik va ijtimoiy-emotsional yutuqlari muhokama qilinadigan uchrashuvdir.	Hamjamiyatning ta'lim bo'yicha kengashlari okrugning ta'lim dasturlarini ko'rib chiqish va baholash, zonalashtirish chiziqlarini tasdiqlash va ayrim masalalar bo'yicha ochiq tinglovlar o'tkazish uchun javobgar bo'lgan ta'lim siyosati bo'yicha maslahat kengashlaridir. A'zolar nima qilishining to'liq tavsifi uchun Rollar va majburiyatlar sahifasi bilan tanishing.	

Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun dastur

Nyu-York shahri davlat maktablari ingliz tilini o'rganuvchilarning oilalariga farzandlariga ingliz tilini o'rganishga yordam berishi uchun uchta dastur taklif etishadi. Bu dasturlar o'quvchilar ijtimoiy va akademik ingliz tili ko'nikmalarini shakllantirgan vaqtda ularning ona tilini rivojlantiradi va olingan bilimlar qamrovini kuchaytiradi.

- **Ingliz tilini yangi til sifatida o'rganish (English as a New Language; ENL):** Barcha ingliz tilini o'rganuvchilar (English Language Learners; ELL) ingliz tilini yangi til sifatida o'rganishadi (ENL). Farzandingizga ona tilida ko'mak berilgan holda ingliz tilida o'qish, yozish va gapirish o'rgatiladi.
- **Ikki tilli ta'lim (Dual Language Bilingual Education; DLBE):** Ushbu dasturning maqsadi farzandingiz har ikki tilda o'qish, yozish va gapirish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlashdir. Farzandingiz ingliz tilini o'rganuvchi (ELL) maqomidan chiqqandan keyin ham u ta'lim olish va har ikki tilni o'rganish uchun dasturda qoladi.
- **O'tkinchi ikki tilli ta'lim (Transitional Bilingual Education; TBE):** Bu dasturlarda farzandingizning ingliz tili yaxshilangandan keyin u ko'proq vaqtini ingliz tilini o'rganishga hamda kamroq vaqtini ona tilini o'rganishga sarflaydi. Farzandingiz ortiq ingliz tilini o'rganuvchi (ELL) bo'lmasa, u dasturni tark etadi.


	IKKI TILNI O'RGANISH	O'TKINCHI IKKI TILNI O'RGANISH	INGLIZ TILINI YANGI TIL SIFATIDA O'RGANISH
Dastur maqsadlari	Ikki tilda so'zlash/ savodxonlikni targ'ib qilish uchun har ikki tilidan foydalanish	Ingliz tili ravonligini qo'llab-quvvatlash uchun ona tilidan foydalanish	Darslarni ingliz tilida o'rganishga yordam bo'lishi uchun ona tilidan havoza sifatida foydalanish
Darslarni ona tilida o'rganish	✓	✓	✓
Ayni ona tiliga ega sinfdoshlar	✓	✓	
Darslarni har ikki tilda o'rganish	✓		

Ikki tilli shaxs bo'lishning foydalari

Tadqiqotlar birdan ortiq tilni bilish bolalar uchun juda foydali ekanini ko'rsatmoqda. Turli tillarda so'zlashish qobiliyati barcha yoshdagi odamlarga yordam berishi mumkin. Bolalar uchun u maktabda yaxshiroq o'qishga yordam beradi. Ular ulg'ayganda yaxshiroq ishlarga ega bo'lishi mumkin. Undan tashqari, ular qariganda ikki tilni bilish ularning miyasini tiniq saqlaydi va hatto Alsgeymer deb nomlangan miya kasalligidan himoya qilishi mumkin.



Ikki tilli dasturlardan birini tanlash (Ikki tilda ta'lim olish) orqali farzandingiz **Ikki til savodxonligi muhrini** olish uchun yaxshiroq tayyorgarlik ko'radi. Nyu-York shtatining Ikki til savodxonligi muhri (New York State Seal of Biliteracy; NYSSB) bu ingliz tili va kamida bitta boshqa tilda ravon so'zlashishini namoyish etgan maktab bitiruvchilariga beriladigan mukofotdir. NYSSB tilni o'rganishni targ'ib qiladi, xilma-xillikni dastaklaydi va universitetlar va ish beruvchilarga o'quvchining tilga oid ko'nikmalari haqida qo'shimcha ma'lumot taqdim etadi. Talablarni bajargan o'quvchilarning diplomida rasmiy muhr bosiladi, medalyon hamda Nyu-York shtati ta'lim boshqarmasining sertifikatini beriladi. NYSSB ikki tildagi savodxonlikning muhimligini tan olish, ularning akademik natijalarini ko'rsatib berish va kelajakdagi imkoniyatlar uchun bunday savodxonligi borligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma taqdim etish orqali o'quvchilarga foydasi tegadi.



Maktabim ikki tilli dasturlarni taklif qilmasa nima bo'ladi?

Agar maktabingiz hozirda ikki tilli dasturlarni taklif etmasa, sizga yaqin maktablarda qanday ikki tilli dasturlar borligi haqida surishtiring. Agar sizga maqbul dastur hozirgi maktabingizda taqdim etilmasa, siz o'qishni ko'chirishni talab qilishingiz mumkin va maktab ko'chirish jarayonida sizga yordam beradi. Ko'p tilli va yangi immigrant o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan xalqaro tarmoqdagi maktablar kabi har xil turdagi maktablar mavjud.



Ammo, ular qanday maktab turi bo'lishidan qat'i nazar siz doimo ikki tilli dasturga joylanishni talab qilishingiz mumkin ekanini unutmang.

Farzandimning maxsus ehtiyojlari va/yoki nogironligi mavjud. Nima qilishim kerak?



Agar farzandingiz individual ta'lim rejasi (individualized education plan; IEP) bilan maktabga kelsa, 1–32 okruglarda shunday o'quvchi uchun ikki tilli maxsus ta'lim (BSE) alohida ustivorlik bilan ajratiladi. BSE dasturiga o'tkazish talablari bilan BSEprograms@schools.nyc.gov manziliga yozishingiz mumkin.

Boshqa savollarim bo'lsa nima qilaman?



Agar ikki tilli dasturga qabul jarayoni yoki ota-onalar guruhida ishtirok etish borasida xavotirlaringiz yoki savollaringiz bo'lsa, maktabingizdagi ota-onalar koordinatori, direktor o'rinbosari va/ yoki direktor bilan bog'laning. Undan tashqari, siz okrugning Oilalarni qo'llab-quvvatlash koordinatori, superintendant va Oilalar va hamjamiyat huquqlarini kengaytirish (FACE) idorasiga murojaat qilishingiz mumkin.

Farzandim uchun oʻrta maktabdan keyin qanday taʼlim olish imkoniyatlari bor?

Oʻrta maktabdan keyingi variantlar bu oʻquvchilar maktabni tugatgandan keyin kollejga, ishga, kasb-hunar dasturiga hamda harbiy xizmatga kirish kabi imkoniyatlardir. Bu ikki va toʻrt yillik oʻqishdan iborat kollej yoki universitetlar, kasb-hunar maktablari va ishga kirishni oʻz ichiga oladi. Immigratsion maqomidan qatʼi nazar barcha oʻquvchilar oʻrta maktabdan keyingi imkoniyatlardan foydalanish huquqiga ega.

Nyu-York shtatida hujjatsiz oʻquvchilar ikki va toʻrt yillik oʻqishdan iborat universitetlarga kirish uchun shtat tomonidan oʻqish uchun toʻlov va shtatning moliyaviy koʻmagidan foydalanishi mumkin. Quyida immigratsion maqomidan qatʼi nazar hujjatsiz oʻquvchilar va aralash maqomdagi oilalar uchun oʻrta maktabdan keyingi imkoniyatlardan foydalanishga yordam beruvchi asosiy resurslar keltirilgan.

Oʻrta taʼlimdan keyingi tayyorgarlikka oid tuzilma

Oʻrganib chiqish	oʻquvchilarga oʻz irqi, madaniy va lingvistik oʻzligini kashf etish, oʻz huquqlari hamda qiziqishlari/yoqtirmaydigan narsalarini tushunishga imkon beradigan suhbatlar va mashgʻulotlarni uyushtirishdir.
Tayyorlanish	oʻquvchilarni mazmunli va toʻlaqonli oliy taʼlim uchun kerakli narsalarga ega boʻlishlarini taʼminlash, hozirgi holatlari bilan kelajakdagi oʻrinlarini bogʻlovchi rejani yaratish hamda kollejga kirish va karyeraga tayyorlovchi kurslar va tajribalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega boʻlishdir.
Ariza berish	kollej, dastur yoki ishga qabul qilinish uchun talab etilgan qadamlarni tashlashdir. Bu oʻquvchining maktab hayotidagi eng muhim va asabiy davrdek tuyulishi mumkin, ammo toʻgʻri tayyorgarlik va koʻmak yordamida oʻquvchilar oʻzlarini tanlagan oʻrta taʼlimdan keyingi yoʻllariga muvaffaqiyatli oʻtishlari mumkin.



O'rta ta'limdan keyingi davr uchun resurslar

Resurslar	Toifa	Tavsif
Nyu-York shahri Oliy ta'lim xizmatlari	Shtat tomonidan kollej uchun o'qish to'lovini qoplash va moliyaviy ko'mak	Immigratsion maqomidan qat'i nazar, barcha o'quvchilar 2-4 yillik o'qish taklif etiladigan universitetga o'qishga kirishi mumkin. Nyu-York shtatining Dream qonuni turli immigratsiya maqomiga ega kamida 2 yil Nyu-York shtatidagi yuqori sinflar maktabiga qatnagan va boshqa talablarga javob beradigan immigrant o'quvchilarga shtat tomonidan moliyaviy ko'mak berilishini nazarda tutadi.
Save for College (Kollej uchun tejash dasturi)	Kichik yoshdagi Nyu-York shahridagi bolalar uchun stipendiya va jamg'arma dasturi. Daromad yoki immigratsiya maqomidan qat'i nazar bepul.	Kollej uchun tejash dasturi kollej va karyeraga tayyorlashni barcha Nyu-York shahri davlat maktablaridagi bog'cha yoshidan boshlangan va daromadi yoki immigratsion maqomidan qat'i nazar barcha o'quvchilar uchun qulay va oson qilishni mo'ljallagan universal stipendiya va jamg'arish dasturidir.
Boxabar immigrat	Hujjatsiz yuqori sinf o'quvchisi uchun imkoniyatlar	Immigratsiya maqomidan qat'i nazar, Nyu-York shahrining davlat maktablaridagi hujjatsiz yuqori sinf o'quvchilarida maktabni tamomlagandan keyin foydalanish uchun imkoniyatlar mavjud. Siz kollejlari yoki universitetlarga o'qishga topshirish, kasb-hunar va texnik maktablarga kirish yoki bevosita ishga kirishni tanlashingiz mumkin.
Kollegja yo'l nazorat ro'yxati	Kollegja yo'l nazorat ro'yxati	Nazorat ro'yxati Nyu-Yorkdagi hujjatsiz o'quvchilar uchun kollej va boshqa yo'nalishda tavsiya etilgan qadamlarni kutish va tashlash uchun yaratilgan. O'quvchilar savollariga javob topish uchun resurslar va havolalardan foydalanishi mumkin.
Immigrantlarga xayrixoh kollejlarni aniqlash	Kollejlarni topish	Bir betli varaqda qaysi kollejlari immigrantlarga xayrixoh ekanini aniqlashning bir qancha yo'li tavsiflangan.
Hujjatsiz va immigrant o'quvchilar dasturlari CUNY idorasi	Nyu-York shahar universiteti (City University of New York, CUNY) hujjatsiz va immigrant o'quvchilarni o'qishga qabul qiladi.	CUNY hozirda to'rtta immigrant o'quvchilar uchun muvaffaqiyat markazini ochgan. Bu markazlarda immigrant va hujjatsiz o'quvchilarning tajribasidagi o'ziga xosliklarni yaxshi tushunadigan maxsus tayyorlangan va xabardor xodimlar ishlaydi. Markazlar immigrant o'quvchilarni keng qamrovli himoya qilish va qo'llab-quvvatlash yo'lida moliyaviy, yuridik, ruhiy salomatlik va ijtimoiy yordam taqdim etadi. Biz immigratsiya maqomidan qat'i nazar barcha o'quvchilarni teng foydalanish imkoniyati va resurslar bilan ta'minlash maqsadida CUNY doirasida ko'proq markazlar ochish ustida ishlayapmiz.

Nyu-York shahridagi resurslar

Nyu-York shahri immigrant oilalar va o'quvchilar uchun manfaati tegishi mumkin bo'lgan ko'plab resurslar taklif etadi. Bu resurslar sizga ta'lim va ijtimoiy integratsiya sari yo'lingizda muvaffaqiyatga erishishingiz uchun keng qamrovli yordam va imkoniyatlar taklif etadi. Quyida resurslarga oid ayrim misollar keltirilgan.

Resurslar tavsifi

Nyu-York shahar merining immigrantlar ishlari bo'yicha idorasi (Mayor's Office of Immigrant Affairs; MOIA) shahardagi immigrantlar bilan ishlovchi idora sanaladi. Bu barchasini boshlash uchun zo'r resurs.

Agar sizga qolish uchun joy/yoki o'zingiz va oilangizni boqish uchun oziq-ovqat kerak bo'lsa, siz shahar bo'ylab [boshpanalar](#) va [oziq-ovqat banklarini](#) topishingiz mumkin.

Undan tashqari, sizga turli masalalarda yordam berishi mumkin bo'lgan ko'plab [Hamjamiyat ichidagi tashkilotlar](#) (Community Based Organizations; CBO) mavjud. Masalan, agar sizda Afrikaliklar uchun maxsus bo'lgan biror ehtiyoj bo'lsa, African Community Together (AFC) tashkiloti immigrantlar uchun yuridik xizmatlar, kichik biznesda ko'mak, ish qidirish va umumiy ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirishda yordam berishi mumkin.

Immigrantlarning oilalariga arzonroq tibbiy sug'urta rejalari, jumladan Medicaid (hujjatsiz immigrantlar faqat shoshilinch tibbiy muammolar bilan murojaat qilishi mumkin) va Child Health Plus sug'urta reja [Shahar tibbiy sug'urtalash idorasi \(OCHIA\)](#) orqali taqdim etiladi.

Aloqa

Agar ikki tilli dasturga qabul jarayoni yoki ota-onalar guruhida ishtirok etish borasida har qanday xavotirlaringiz yoki savollaringiz bo'lsa, maktabingizdagi ota-onalar koordinatori, direktor o'rinbosari va/yoki direktor bilan bog'laning. Undan tashqari, siz okrugning Oilalarni qo'llab-quvvatlash koordinatori va superintendantga murojaat qilishingiz mumkin. Yoki Ko'p tilli o'rganuvchilar bo'limiga multilinguallearners@schools.nyc.gov orqali xabar yuboring.

URL havolalar ilovasi

Sahifa 6	Huquqlarga oid qonun  bit.ly/RightsELL	Sahifa 6	Oilaviy qabul markazi  http://tinyurl.com/3avjw5cy
Sahifa 9	CCELL  ccell.org	Sahifa 14	Hujjatsiz va immigrant o'quvchilar dasturi CUNY idorasi  bit.ly/cunyundoc
Sahifa 14	Save for College (Kollej uchun tejash dasturi)  bit.ly/saveforcollege	Sahifa 14	Immigrantlarga xayrixoh kollejlarni aniqlash  http://tinyurl.com/3djh7f22
Sahifa 14	Nyu-York shahri Oliy ta'lim xizmati  http://tinyurl.com/4fbhwasr	Sahifa 14	Kollejga yo'l nazorat ro'yxati  bit.ly/3NSGfHe

URL havolalar ilovasi

Sahifa 14	Boxabar immigrant  tinyurl.com/mrxca3yp	Sahifa 15	Hamjamiyatdagi tashkilotlar  bit.ly/OMLCBOs
Sahifa 15	Shahar tibbiy sug'urtalash idorasi  on.nyc.gov/46B9it0	Sahifa 15	Nyu-York boshpanalari ro'yxati  bit.ly/3JHim5G
Sahifa 15	Nyu-York shahri oziq-ovqat banki  bit.ly/3JHim5G		

